



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Iqtisodiyotdagi strategik menejmentning roli va ahamiyati

Tohirova Nigora Zokirjon kizi

Lecturer, Department of Economics of Karshi State University

ORCID: 0009-0007-8490-6027

E-mail: nigora.takhirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi strategik menejmentning iqtisodiyot sohalaridagi ahamiyati, korxonalar faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlari va menejment jarayonlarining samaradorlikka ta'siri o'rganiladi. Tezisdagi korxona ichidagi boshqaruv tuzilmalari, xodimlarning motivatsiyasi, rasmiy va norasmiy guruhlarining roli hamda strategik qaror qabul qilish tizimlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: menejment, strategik menejment, iqtisodiyot, boshqaruv, korxona

Kirish: Raqobatbardosh bozor sharoitida korxona va tashkilotlarning muvaffaqiyati ularning boshqaruv tizimining samaradorligiga bevosita bog'liq. Strategik menejment korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini aniqlash, resurslarni optimal taqsimlash va xodimlarning ish faoliyatini rag'batlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, strategik menejmentning mohiyati, vazifalari va korxona ichidagi boshqaruv tuzilmalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda markaziy ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Strategik menejment jarayoni korxona maqsadlarini belgilash, resurslarni boshqarish, marketing va biznes-rejalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Menejmentning asosiy vazifasi – korxona faoliyatini rejalashtirish, boshqarish va xodimlarni malakaviy tayyorlash orqali samaradorlikni oshirishdir.

Korxona ichidagi boshqaruv tuzilmalari chiziqli, amaldorli, chiziq-shtabli yoki mahsulot bo'yicha tashkil etilishi mumkin. Har bir tuzilma menejment vazifalarini turlicha samaradorlik bilan bajarishga imkon beradi. Xodimlarning motivatsiyasi va ishga moyilligi, rasmiy va norasmiy guruhlarining korxona faoliyatidagi roli strategik menejmentning samaradorligini belgilaydi.

Moyillik – xodimlarni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar yig'indisi – korxona maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kutish nazariyasi, maqsadlarni belgilash nazariyasi va partisipativ boshqaruv nazariyalari xodimlar faoliyatini samarali boshqarishda qo'llaniladi.

Rasmiy guruhlar (bo'limlar, hisobchilar, reja bo'limlari) va norasmiy guruhlar (xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar) o'rtasidagi muvofiqlik korxona ichidagi strategik qarorlar samaradorligini oshiradi. Norasmiy guruhlarini boshqarish ularni tan olish, ularning fikrini hisobga olish va rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi.



Xulosa: Korxonaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi strategik menejment tizimining samarali ishlashiga bog'liq. Bu esa:

- korxona maqsadlarini aniqlash;
- resurslarni optimal taqsimlash;
- xodimlarning malakasi va motivatsiyasi;
- rasmiy va norasmiy guruhlar bilan samarali boshqaruv;
- zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, strategik menejment korxonaning iqtisodiy natijalarini oshirish va bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. G'.H.Qudratov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev va boshqalar. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016.
2. Kotler, P. Marketing Essentials. 1984. V.B. Bobrov tarjimasi, M., 1990.
3. Koval, A.G., Pesold, K. Innovasii v roznichnoy trgovle. 2012, №7, s.78-81.
4. Sallivan, M., Edkok, D. Marketing v roznichnoy trgovle. SPb.: Neva, 2004.
5. WTO. World Trade Report 2019: The Future of Services Trade, Geneva: WTO.